

MUROSAVIY TASHQI SIYOSAT TAMOYILLARI: SHAVKAT MIRZIYOYEV DAVRIDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR TAHLILI

Maqsudova Durdonaxon

Toshkent davlat sharqunoslik universiteti 1-bosqich talabasi

TDSHU katta o'qituvchisi t.f.b.f.d. PhD

V.E. Abirov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Murosaviy tashqi siyosat tamoyillari va Shavkat Mirziyoyev davrida amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlar tahlili haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Murosaviy tashqi siyosat, diplomatik muloqot, tenglik, o'zaro manfaat va ishonch, siyosiy yondashuv, ichki barqarorlik, mintaqaviy xavfsizlik.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tashqi siyosatda o'zining suveren manfaatlarini himoya qilishga va xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallashga intildi. 2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning Prezident etib saylanishi bilan mamlakat tashqi siyosatida yangi davr boshlandi. Bu davrda ochiqlik, amaliy hamkorlik va o'zaro manfaatli muloqotga asoslangan **murosaviy tashqi siyosat** tamoyillari asosiy yo'nalish sifatida e'tirof etila boshladi.

Murosaviy tashqi siyosat – bu xalqaro munosabatlarda kuch ishlatishga emas, balki diplomatik muloqot, tenglik, o'zaro manfaat va ishonchga asoslangan siyosiy yondashuvdir. Bu yondashuv:

- ichki barqarorlikni ta'minlash;
- mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash;
- xalqaro maydonda ijobiy imij yaratish kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan tashqi siyosat mustaqillik yillaridagi yondashuvlardan tubdan farq qilmoqda. Agar ilgari O'zbekiston ehtiyyotkorlik va yopiqlikka asoslangan tashqi siyosat yuritgan bo'lsa, yangi davrda ochiqlik, konstruktiv muloqot hamda o'zaro manfaatli hamkorlik asosiy tamoyillar sifatida ilgari surilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosatda quyidagi tamoyillarni ustuvor deb belgiladi:

- Yaxshi qo'shnichilik va o'zaro hurmat;
- Murosaga asoslangan masalalarni hal qilish;
- Ko'p vektorli va ochiq siyosat yuritish;
- Iqtisodiy manfaatlarni ilgari surish;

Prezident Mirziyoyev tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlarini aniqlab, eng avvalo, yaqin qo'shnilar bilan aloqalarni yaxshilashni bosh maqsad qilib oldi. Bu yondashuv "Avvalo, qo'shnilar bilan do'st bo'lishimiz kerak" degan prinsip asosida amalga oshirildi. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan uzoq yillar davomida hal qilinmay kelgan chegara masalalari diplomatik muzokaralar orqali muvaffaqiyatli hal etildi. Bu esa mintaqada ishonch muhitini yaratdi va iqtisodiy hamkorlik uchun yangi yo'llarni ochdi.

Murosaviy tashqi siyosatning yana bir muhim yo'nalishi — xalqaro tashkilotlar bilan faol va konstruktiv hamkorlikdir. O'zbekiston BMT, Yevropa Ittifoqi, Shaxnay hamkorlik tashkiloti (ShHT), Islom hamkorlik tashkiloti (IHT), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) kabi nufuzli tuzilmarda o'zining tashabbuskorligi va faolligi bilan ajralib turmoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasi aynan O'zbekiston tashabbusi bilan ilgari surilgan bo'lib, xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholandi.

Murosaviylik tamoyiliga asoslangan tashqi siyosat nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy yo'nalishda ham ijobjiy natijalar bermoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada ortdi. Jumladan, Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya kabi yetakchi davlatlar bilan yirik iqtisodiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa O'zbekiston tashqi siyosatining barqarorligi, ochiqligi va xalqaro hamjamiyat ishonchini qozonganidan dalolatdir.

Transchegaraviy daryolardan foydalanish va suv resurslarini boshqarish kabi nozik masalalarda ham O'zbekiston konstruktiv va murosaviy pozitsiyani egallab kelmoqda. Bu yo'nalishda qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda tuzilgan bitimlar hamda qo'shma komissiyalar faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Afg‘oniston masalasida ham murosaviy vositachi sifatida faol ishtirok etmoqda. Toshkentda tashkil etilgan xalqaro konferensiyalar Afg‘onistondagi muammoni tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan xalqaro sa’y-harakatlarga amaliy hissa bo‘lib xizmat qilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashdagi o‘sib borayotgan rolini ifodalaydi.

2018-yil mart oyida Toshkentda Afg‘oniston muammosiga bag‘ishlab “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi. 2021-yil iyul oyida esa “Markaziy va Janubiy Osiyo: Mintaqaviy bog‘liqlik — tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusida yana bir yirik xalqaro konferensiya o‘tkazildi. Ushbu tadbirlar O‘zbekiston tashabbusi bilan mintaqaviy xavfsizlik va integratsiyani mustahkamlashga qaratilgan muhim tashqi siyosiy platformalar bo‘ldi.

Murosaviy tashqi siyosat, shuningdek, madaniy-gumanitar sohalarda ham o‘z ifodasini topmoqda. Xorijiy davlatlar bilan talabalar almashinushi dasturlari, madaniy festivallar, ilmiy hamkorlik loyihalari kabi tashabbuslar orqali O‘zbekiston xalqaro maydonda ochiq, madaniyatlararo muloqotga tayyor va taraqqiyotga intilayotgan davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tashqi siyosatda amalga oshirilgan murosaviy yondashuv O‘zbekistonning xalqaro maydonidagi nufuzini oshirdi. Bu yondashuv mintaqada barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy manfaatlarni ilgari surish va global muammolarda faol ishtirok etishga imkon yaratdi. O‘zbekiston bugun o‘zining ochiq, tinchlikparvar va ishonchli hamkor sifatida namoyon bo‘layotgan davlatga aylandi. Ushbu murosaviy siyosat yurtimizning barqaror rivojlanishida muhim strategik omil bo‘lib qolmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zyekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zyekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. Toshkyent: O‘zyekiston, 2017. – 48 b.

4. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kyerak. – T.:O'zbyekiston, 2017. – 104 b.

5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kyelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkyent: O'zbyekiston, 2017.